

TA'LIM JARAYONIGA MATIVATSION YONDOSHUVNI QO'LLASH

Mamarizzayeva Dilnozaxon Erkinovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU akademik litsey o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lism jarayonida motivatsiyaning ahamiyati, uning turlari va ta'lism sifatiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Motivatsiya o'quvchilarining o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularda mustaqil fikrlash va izlanish layoqatlarini rivojlantirishda muhim rol o'yaydi. Maqolada ichki va tashqi motivatsiyaning farqlari, ularni shakllantirish usullari va pedagoglarning bu jarayondagi o'rni haqida ham so'z yuritiladi. Talabalar motivatsiyasini oshirish uchun zamonaviy ta'lism texnologiyalarining roli va ulardan samarali foydalanish usullari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, ta'lism, pedagogika, o'quv jarayoni, ta'lism texnologiyalari, interaktiv darslar, mustaqil o'rganish, o'quvchilar motivatsiyasi.

Bugungi kunda ta'lism sohasidagi islohatlarning asosiy mezonlari bu o'quvchilar bilimining samaradorligini oshirishdir. Shunday ekan o'quvchilarining bilim darajasi oshishi, ularning o'z mutaxasisliklari bo'yicha yetarlicha bilim olishi va yetuk kadr bo'lib yetishishi uchun o'quvchilarda motivatsiyaning bo'lishigina emas, balki uning qanday ekanligi juda muhim. Motivatsiyaning qanday bo'lishi bu o'quvchilarining kelajakda qanday toifadagi kadr bo'lib yetishishini belgilab beradi. Tadqiqotchilar olib borgan izlanishlar natijasida bugungi kunda xalqaro miqiyosda o'quvchilarda mavjud motivatsiya turlarini tarqaganlik darajasi tartibida sanab o'tamiz[1-3]:

1. Imtihonlardan o'tish- (berilgan minimumlarni bajarish, o'qituvchi talablarini bajarish) (minimal darajada) oxir oqibat ta'lism muassassalarini yakunlab, diplom olish; (juda katta foiz)
2. Yuqori ball to'plash, reytingda yuqori o'rnlarda turish, musobaqalarda bosh o'rnlarni egallah (o'rtacha foiz)
3. Oliy ta'linda o'qishni davom ettirish uchun kerakli bilimlarni egallah, yoki ilmiy tadqiqot qilish uchun kerakli bilimlarni ega bo'lish (eng kam foiz)

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, bu xalqaro miqiyosda umumiy olingan natijalar bo'lib, alohida davlatlar misoldida ko'radigan bo'lsak, yana juda ko'plab ta'lism olishga motivatsiyalovchi faktorlarni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, ota-onasi xohishiga ko'ra yoki shajarasi yoki oilasi statusini saqlab qolish xohishiga ko'ra ta'lism olayotgan o'quvchilar ham uchrab turadi [4]. Bunday toifadagi o'quvchilarni yuqoridagi birinchi tur motivatsiya turiga kiritsak bo'ladi.

Ikkinci tur motivatsiya birinchi tur motivatsiyadan biroz farq qiladi: endi minimum talablarni bajarish emas, maksimumga erishish, hammadan oldinda bo'lish istagi ustun bo'ladi. Bunday motivatsiyali o'quvchilarining ta'lism olishga ishtiyoqi birinchi tur motivatsiyali o'quvchilardan yuqori bo'lsada, ulardagi qo'rquv va hayajon ham birinchi turdagilardan ko'ra kuchliroq bo'ladi. Bu oldin aytgan qo'rquv va hayajondan ko'ra ancha xavfli hisoblanadi, chunki birinchi bo'lish minimum talabni bajarishdan ko'ra ancha qiyin. Bunda o'quvchi o'ziga o'zining fizik, psixologik, biologik imkoniyatidan tashqari talablar qo'ya boshlaydi va natijada o'zini qattiq charchatib qo'yishi mumkin, bu esa oxir-oqibat ta'lism olishga bo'lgan motivatsiyaning umuman yo'qolishiga olib keladi, xususan belgilangan marralarga erishilmaganda. Eng ayanchlisi, ba'zi hollarda bu o'quvchilarining shaxsiy hayotiga ham ta'sir etib, hatto yashash ishtiyoqi pasayib ketishiga, go'yo hayotdan maqsadi qolmagandek bo'lib qolishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchi tur motivatsiya eng to‘g‘ri motivatsiya hisoblanadi. Chunki bilim olishga intilish, kasbga tayyorlanishga intilish jarayonida o‘quvchi faqat universitet talablari bilan cheklanib qolmaydi, o‘z ustida mustaqil ko‘p ishlaydi, qo‘srimcha bilimlarni olishga harakat qiladi. Olgan bilimlarini chuqur anglashga va ularni uzoq muddat saqlab qolishga harakat qiladi. Kasbga, ilmiy tadqiqotga muhabbat natijasida oxir oqibat ular yuqori natijalarni ko‘rsatishadi, oliv ta’lim muassassasini tugatgach ham yaxshi kadr yoki ilmiy xodim bo‘lishadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning ko‘pgina oliv ta’lim muassassalari rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribasi asosida o‘qitishning kredit tizimiga o‘tishni yo‘lga qo‘ydi. Bu tizim to‘laligicha o‘zini oqlaydi, chunki bu tizimga o‘tishga masul bo‘lgan yuqori turuvchi organlar tomonidan universitet rahbariyatiga, professor o‘qituvchilarga va o‘quvchilarga hamma shart-sharoitlar yaratib berilmoqda [5-7]. Shunday bo‘lishiga qaramasdan yangicha o‘qitish ya’ni kredit tizimiga o‘tish jarayonida o‘quvchilar juda ko‘p psixologik muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolarning bir qanchasi ustida to‘xtolib o‘tmochimiz. Asosiysi o‘quvchilar o‘z ustida ishlamasligi, erkin ijod qilmasligi, mustaqil ish uchun berilgan topshiriqni to‘g‘ri tushunib yetmasligi, mustaqil ishlarning soning ko‘pligi[8-9]. Shunday ekan o‘qituvchilar o‘quvchilarga mustaqil ish topshiriqlarini berishda ularning psixofizologik talablarini hisobga olish kerak. Agarda bu hususiyatlarni hisobga olmasak o‘quvchilar bir ikkita mustaqil ishlarni topshirishda faol bo‘lib keyin keskin ravishda o‘qishga bo‘lgan qiziqishi so‘nib ketishi mumkin. Eng avvalo oliv ta’lim muassassasiga qabul bo‘layotganda, o‘quvchilarga shu mutaxassislikning ma’nosini yaxshiroq tushuntirish kerak [10-11]. Kelajakda o‘zi egallamoqchi bo‘lgan kasbni afzal tomonini ko‘rib, faqat yuzaki, orzu qilish emas, uning qiyinchilik tomonlarini ko‘rganda ham yaxshi ko‘radigan bo‘lishi kerak. Bundan keyingi bosqichda har bir fan o‘tilayotganda, shu fanning o‘zlashtirmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarga fanning kasbiga bog‘liqliligi yaxshi tushuntirilishi kerak, bunda faqat kirish darsida emas, balki har bir dars yoki uchrashuvda kasbga bog‘liq joylari aytib o‘tilishi kerak [12]. Buning uchun, kerak bo‘lsa, shu kasb egalari bilan suhbatlar uyushtirilishi kerak. Buning natijasida o‘quvchilarning har bir fanga bo‘lgan qiziqishining soni ortadi. Yuqorida bir nechta motivatsiya turlarini ko‘rib, ularning salbiy va ijobiy tomonlarini ko‘rib o‘tdik. Ulardan eng yaxshisini tanlab, aynan shunday motivatsiyani oliv ta’lim muassassasi o‘quvchilarida rivojlantirish kerak degan tushunchadan yiroqmiz [13]. Chunki, motivatsiya eng avvalo inson ehtiyojlaridan, uning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Psixologik tadqiqolarga asosan ehtiyojlar piramidasining boshida iqtisodiy ehtiyojlar, undan keyin ma’naviy ehtiyojlar yotadi[6]. Yuqoridagi motivatsiya turlari ham shu ehtiyojlar va psixologik xarakterlarga asosan vujudga keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, oliv ta’limda motivatsiyani to‘g‘ri tanlashga o‘rgatish maqsadida o‘quvchilarga har bir dars mashg‘ulotlarida o‘qituvchi tomonidan tushuncha berish maqsadga muvofiqdir. Motivatsiyani oshirish uchun pedagoglar ichki va tashqi motivatsiya turlarini hisobga olgan holda darslarni tashkil etishlari lozim. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va interaktiv usullar talabalarning motivatsiyasini oshirishda katta yordam beradi. Shu orqali, ta’lim sifati oshadi va talabalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

Foydalinilgan adabiyotlar:

1. Yu. Karimov, Sh. Karimova, S. Abdurahmonova, I. Abdusalomov. //Ta’limda ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanish: muammo va yechimlari// Talqin va tadqiqotlar jurnali. 1-tom. 34-son. –B. 38-46

2. X.N.Karimov. // Fizika fanini o‘qitishda virtual laboratoriya ishidan foydalanish // “Yosh olimlar, doktarantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi” materiallar to‘plami. –P. 102-104 (https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=i5SoNTcA AAAJ&pagesize=80&citation_for_view=i5SoNTcAAAAJ:qxL8FJ1GzNcC).
3. X.N.Karimov, M.M.Asfandiyorov, M.A.Axmakov. // Zamonaliv yondashuvlar asosida fizika o‘qitishni rivojlantirish // “Yosh olimlar, doktarantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi” materiallar to‘plami. 2023. –P. 113-115.
4. A Ganiyev, Yu Karimov. // Problems and solutions of organizing students'scientific research works// “Science and innovation” international scientific journal volume 2 issue 10 october 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337. –P. 77-83
5. Э.З.Имамов Х.Н.Каримов, С.С.Халилов, А.Э.Имамов. // Будущее за обучением с активным процессом самообразования студентов // “Science and innovation” international scientific journal. (ISSN: 2181-3337) 2022. № 5. -С. 479-482. (<http://scientists.uz/uploads/202205/B-102.pdf>)
6. B.B.Turdiqulov, O‘S.Nazirov, Yu.N.Karimov. // Atom va molekulalarning yorug’likni yutishi va nurlanishi // UIF = 8.1 | SJIF = 5.685. 2022. –С. 1252-1258. (https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=HF_xJoA AAAJ&citation_for_view=HF_xJoAAAAJ:u5HHmVD_uO8C)
7. X.Sh.Asadova, Yu.N.Karimov. // Effective organization of the educational process based on new modern technologies // “Science and innovation” international scientific journal. Volume 1 Issue 7. 2022. -S. 230-233. (https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=HF_xJoA AAAJ&citation_for_view=HF_xJoAAAAJ:2osOgNQ5qMEC).
8. Kh.N.Karimov. // Methods of self-education in teaching students physics using ict-information and computer technologies // “Galaxy international Interdisciplinary Research Journal”, 11(2), -С. 471–475. (<https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/4889>).
9. Axmadov M. // Pedagogik dasturiy vositalar yordamida fizika fanini o ‘qitish // Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 90-92.
10. (https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Tl5hqLkA AAAJ&citation_for_view=Tl5hqLkAAAAJ:dhpJJ7xvgBgC)
11. X.N.Karimov, A.E.Imamov, E.Z.Imamov, //Development of creative thinking in higher education// Science and innovation» international scientific journal. (<https://zenodo.org/doi/10.5281/zenodo.7650805>)
12. Koxxarov M., Sobirzhonova S., Asfandiyorov M. // Isotherm of ammonia adsorption in seolite CaA (M-22) //E Global Congress. – 2023. – Т. 12. – S. 67-72.
13. Bakhronov, K., Ergashev, O., Ganiev, A., Asfandiyorov, M., Ahkmadov, M., & Kholikov, K. // (2024, March). Isotherm and basic thermodynamic characteristics of ammonia adsorption in CsZSM-5 zeolite.// In AIP Conference Proceedings (Vol. 3045, No. 1). AIP Publishing.
14. Асфандиёров М. М. Ў. Муқобил энергия манбаларидан фойдаланиш истиқболлари //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 322-325.